

Ko'mirchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 mart kuni ko'mir qazib olish tarmog'ini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Ko'mirchilik yoqilg'i-energetika ta'minotining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlari, aholining ijtimoiy hayoti bilan bog'liq muhim sohalardan biridir.

Yurtimizda har yili aholi xonadonlariga 1 million tonna, ijtimoiy soha obyektlariga 400 ming tonna ko'mir yetkazib beriladi. Yangi Angren va Angren issiqlik elektr stansiyalarida energiya ishlab chiqarish uchun 4 million tonna ko'mir yoqiladi.

Yig'ilishda konlarning salohiyati yuqori bo'lsa-da, keyingi yillarda ko'mir qazib chiqarish rejalari bajarilmayotgani, tarmoqdagi tizimli muammolar bartaraf etilmagani ko'rsatib o'tildi.

Masalan, konlardagi texnika va texnologiyalar eskirgan. Asosiy xomashyo bazasi bo'lgan Angren konida yangi shaxtalar ochish ishlari ortda qolgan. Karyerlarning qiyalik burchagi belgilangan me'yordan oshib, qazish ishlari xavfli darajaga yetgan.

Shu kabi masalalarni tez va samarali hal etish uchun "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatini professional tashqi boshqaruvga berish mo'ljallanmoqda.

Yig'ilishda Angren konidagi holatni yaxshilashga qaratilgan ishlarni samarali tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yaqin va uzoq istiqbolda ko'mirga bo'ladigan talabini maksimal darajada qoplash uchun Angren konini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Moliya va Energetika vazirliklariga ko'mir narxi tariflarini optimallashtirish, tarmoqning rentabelligini oshirish, investitsiya xarajatlarini qoplash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Kon ochish ishlarini samarali tashkil etish uchun transport vositalari parkini yangilash lozimligi qayd etildi. Mutasaddilarga zarur samosval va boshqa maxsus texnika

vositalarini eng maqbul takliflar asosida xarid qilish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, bugungi kunda qazib olish ishlarida foydalanilmayotgan texnikalardan voz kechib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish choralarini ko'rish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Angren konining janubiy chegarasiga yaqin joyda yashayotgan aholi xavfsizligini ta'minlash masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Vazirlar Mahkamasiga yuqorida qayd etilgan masalalar, xususan, "O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatini boshqarish samaradorligini oshirish, bu borada professional tashqi boshqaruvchini jalb etish, tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ko'mir sifatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilar axborot berdi.

[O'z?](#)